

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki tomonidan
2024 yil «31» may da
82 raqami bilan ro'yxatga
olindi

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki raisi birlinchi
o'rinnbosari

N.N.Saydullayev



“Madad Invest Bank” aksiyadorlik tijorat banki USTAVI (yangi tahriri)

“TASDIQLANGAN”

“Madad Invest Bank”
aksiyadorlik tijorat banki
aksiyadorlar umumiy
yig'ilishining 2024 yil 15
apreldagi 17-sonli

bavonnomasiga asosan

Kuzatuv kengashi raisi:

Sh.R. Xadjizadaev



MUNDARIJA

1-bob. Umumiy qoidalar.....	3
2-bob. Bankning yuridik maqomi va manzili	3
3-bob. Bank faoliyatining maqsadi va operatsiyalarining ro'yxati	4
4-bob. Bankning huquq va majburiyatlari.....	5
5-bob. Bank ustav kapitalining miqdori, uni ko'paytirish va kamaytirish tartibi	7
1-§. Bank ustav kapitalining miqdori, bankning e'lon qilingan aksiyalari	7
2-§. Ustav kapitalini ko'paytirish tartibi.....	8
3-§. Bankning Ustav kapitalini kamaytirish tartibi	8
6-bob. Bank aksiyalari, aksiyalarning nominal qiymati.....	9
7-bob. Bank aksiyalarini joylashtirish tartibi va shartlari, bankning korporativ obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari	9
8-bob. Bank aksiyalari (aksiyalarining bir qismi) boshqa aksiyadorlarga va/yoki uchinchi shaxslarga o'tishi.....	10
9-bob. Bank aksiyadorlarining huquq va majburiyatlari.....	11
10-bob. Bank foydasini taqsimlash, dividendlar to'lash va zararni qoplash tartibi.....	13
11-bob. Bankning o'z mablag'lari, zaxira fondi va kredit resurslari.....	14
12-bob. Bankning boshqaruv organlari	15
1-§. Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi	15
2-§. Bank kuzatuv kengashi.....	18
3-§. Bank boshqaruvi	21
4-§. Bank kuzatuv kengashi, boshqaruv a'zolarining javobgarligi.....	25
13-bob. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi	25
14- bob. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish	26
15- bob. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoboti, bankning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish.....	26
16- bob. Bank filiallari va vakolatxonalari, ularni tashkil etish tartibi	28
17-bob. Bankni qayta tashkil etish va tugatish.....	28
18-bob.Bank ustavi, unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish	29

1-bob. Umumiq qoidalar

1. "Madad Invest Bank" aksiyadorlik tijorat banki O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlariga, boshqa qonunchilik hujjatlariha hamda Bank muassislarning 2015 yil 25 noyabrdagi № 1-sonli va 2016 yil 15 yanvardagi № 2-sonli umumiyligi qarorlariga asosan tashkil etilgan.

2. Mazkur Ustav "**Madad Invest Bank**" aksiyadorlik tijorat bankining (keyingi o'rinnlarda Bank deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va javobgarligi, faoliyatini tashkil qilish tartibi, shuningdek, amalga oshiradigan bank operatsiyalarini belgilaydi.

3. Bank o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlar, boshqa qonunchilik hujjatlari va mazkur Ustavga amal qiladi.

2-bob. Bankning yuridik maqomi va manzili

4. Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiliga asosan mulk huquqi asosida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan aksiyadorlik jamiyati shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi.

5. Bank o'zining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan to'liq va qisqartirilgan firma nomiga, timsoliga, shuningdek o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan va joylashgan yeri ko'rsatilgan yumaloq muhrga ega bo'ladi. Bankning yumaloq muhrida uning firma nomi qo'shimcha ravishda boshqa tilda yozilishi, uning timsoli ko'rsatilishi mumkin. Bank o'z nomi yozilgan va timsoli tushirilgan shtampi va blankalariga hamda xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalar (belgilar)ga ega bo'lishga haqlidir.

6. Bankning davlat tilidagi firma nomi (lotin alifbosida):

to'liq nomi "Madad Invest Bank" aksiyadorlik tijorat banki;

qisqartirilgan nomi "Madad Invest Bank" ATB

davlat tilidagi firma nomi (kirill alifbosida):

to'liq nomi – "Madad Invest Bank" акциядорлик тижорат банки;

qisqartirilgan nomi "Madad Invest Bank" АТБ

Bankning rus tilidagi firma nomi:

to'liq nomi – Акционерный Коммерческий банк "Madad Invest Bank";

qisqartirilgan nomi – АКБ "Madad Invest Bank";

Bankning ingliz tilidagi firma nomi:

to'liq nomi – Joint Stock Commercial Bank "Madad Invest Bank"

qisqartirilgan nomi – JSCB "Madad Invest Bank".

7. Bank O'zbekiston Respublikasining bank tizimi tarkibiga kiradi. Bank faoliyati cheklanmagan muddatga tashkil etiladi va Markaziy bank tomonidan berilgan litsenziya asosida amalga oshiriladi.

8. Bank o'z majburiyatlari, shuningdek aholi omonatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol – mulki bilan javobgardir. Bank aksiyadorlari bank majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydilar va uning faoliyati bilan bog'liq ziyonlarni o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligin o'z zimmasiga oladilar, aksiyalar haqining hammasini to'lamagan aksiyadorlar esa aksiyalar qiymatining to'langan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi.

9. Bank o'z aksiyadorlarining majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi. Davlat va uning organlari Bankning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, huddi shuningdek, Bank ham davlat va uning organlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

10. Bankning mol-mulki unga mulk huquqi asosida tegishli bo'lib, Bank aksiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar, asosiy fondlar va aylanma mablag'lar, ko'char, ko'chmas va intellektual mulklar, qimmatli qog'ozlar, olingen daromad, qonunchilik bilan ta'qilanganmagan asoslarda olingen boshqa mol-mulklardan tashkil topadi.

11. Bank o'z faoliyatini muvofiqlashtirish, o'z manfaatlarini ifoda etish va himoya qilish hamda birgalikdagi dasturlarni amalga oshirish maqsadida uyushmalar (ittifoqlar) va o'zga birlashmalarda qatnashishi mumkin.

12. Bankning manzili u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyga ko'ra belgilanadi.

13. Bankning joylashgan yeri, pochta va uning Boshqaruv organlari (Bank Bosh ofisi) joylashgan manzili: 100077, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Sayram, 6-tor ko'chasi, 9-uy

14. Bankning elektron pochta manzili: info@madadinvestbank.uz

15. Bankning rasmiy veb-sayti: www.madadinvestbank.uz

3-bob. Bank faoliyatining maqsadi va operatsiyalarining ro'yxati

16. Bankni tashkil etish va faoliyat olib borishining asosiy maqsadi qonunchilik bilan belgilangan bank faoliyati deb hisoblanadigan bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, to'lovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablag'larini jalb etish, o'z nomidan kreditlar berish va boshqa bank xizmatlari ko'rsatish kabi operatsiyalar majmuini amalga oshirish hamda ushbu faoliyat bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatish orqali O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida foyda olishdan iboratdir. Zamonaqiy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib yangi moliyaviy bank mahsulotlarini joriy qilish asosida jismoniy va yuridik shaxslarga sifatli raqamli bank xizmatlarni ko'rsatadi, bank faoliyatini raqamlashtirishni takomillashtirish asosida bank xizmatlari doirasi, hajmi kengaytiriladi.

17. Bank operatsiyalarni bajarish va pul mablag'larini saqlash uchun Markaziy bank muassasalarida vakillik hisobvaraqlari ochadi.

18. Bank O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarning boshqa tijorat banklarida vakillik va boshqa hisobvaraqlarini ochish, ular bilan vakillik munosabatlarini o'rnatishga haqli.

19. Bank tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

pul mablag'larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish;

to'lovlarni amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;

kreditlarni ularning qaytarilishi, foizliligi va muddatliligi sharti bilan o'z nomidan o'zining mablag'ları hamda jalb etilgan mablag'lar hisobidan berish;

chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalar;

jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnomaga bo'yicha mol-mulkni ishonchli boshqarish;

inkassatsiya va kassa xizmatlarini ko'rsatish;

uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatları bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiatlarni qabul qilish;

uchinchi shaxslardan pul shaklidagi majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini

olish (faktoring);

qimmatli qog'ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;

affinlangan qimmatbaho metallar sotib olish va sotish, shu jumladan metallarni mas'ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo'limgan) hisobvaraqlarini yuritish;

qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish;

hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish;

hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijaraga berish;

lizing berish;

qonunchilikda nazarda tutilgan shakllarda qarzlar berish;

moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq maslahat xizmatlari ko'rsatish;

aktivlar majmuini (portfelini) boshqarish;

elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va to'lash;

bank kartalarini berish va to'lovlariga ishlov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan boshqa moliya institutlari bilan birgalikda xizmat ko'rsatish.

20. Bank banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq boshqa moliyaviy operatsiyalarni ham amalga oshiradi.

21. Bank bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyada ko'rsatilmagan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga haqli emas.

22. Bank banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka va xalqaro bank amaliyotiga muvofiq boshqa moliyaviy operatsiyalarni ham amalga oshiradi.

23. Bank Markaziy bankning ruxsatnomasi olinganidan keyin xizmatlar va operatsiyalarning ayrim turlarini Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq autsorsingga topshirish huquqiga ega.

24. Bank qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni qonunchilikda belgilab qo'yilgan tartibda amalga oshirish huquqiga ega.

25. Bank va uning mijozlari (hamkorlari) o'rtasidagi munosabatlar shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

26. Bank tomonidan ajratiladigan kreditlar amaldagi qonunchilikka muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lган ko'char va ko'chmas mulk garovi, kafolatlar, kafilklar, majburiyatlar asosida va majburiyatlar bajarilishini ta'minlashning qonunchilikda nazarda tutilgan va bank amaliyotida qabul qilingan boshqa usullari bilan ta'minlanadi.

4-bob. Bankning huquq va majburiyatları

27. Bank moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq qarorlar qabul qilishda mustaqildir va o'z faoliyatini amalga oshirish, oldida turgan vazifalarni bajarish bo'yicha quyidagi huquqlarga ega:

mustaqil ravishda o'z faoliyatini amalga oshirish hamda bank va moliyaviy xizmatlar ko'rsatish;

bank va moliyaviy xizmatlar bozorida rivojlanish strategiyasini hamda ishtirok etish dasturlarini tanlash, shuningdek kredit, investitsiya, dividend, emissiya va boshqa siyosatlarni mustaqil belgilash va amalga oshirish;

o'z faoliyatidan cheklanmagan miqdorda foya olish, barcha xarajatlarning o'rni qoplanganidan, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin qolgan foydani o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish;

belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;

bozor kon'yunkturasini hisobga olgan holda depozitlar va beriladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini va shartlarini, mijozlarga ko'rsatiladigan boshqa bank xizmatlari bo'yicha vositachilik haqi miqdorini mustaqil belgilash;

shartnoma asosida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan berilgan mablag'larni depozitlar, kreditlar shaklida boshqa banklardan jalb etish va boshqa banklarga joylashtirish;

tashkil etiladigan hisob-kitob markazlari va vakillik hisobvaraqlari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish;

barcha soliqlar va majburiy to'lovlar to'lab bo'lingandan keyin Bank tasarrufida qoladigan sof foyda hisobidan zaxiralar va fondlarni tashkil etish;

talabdan voz kechish to'g'risidagi shartnoma yoki qonun asosida kredit va boshqa aktiv operatsiyalar bo'yicha har qanday hajmdagi talab (huquq)larni boshqa shaxslarga o'tkazish (voz kechish), shuningdek kredit va boshqa aktiv operatsiyalar bo'yicha uchinchi shaxslarning talab (huquq)larini olish (ega bo'lish);

o'z moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan qonunchilikda ta'qiqlanmagan bitimlar va boshqa xo'jalik sub'ektlari bilan xo'jalik shartnomalari tuzish;

o'zining xo'jalik, moliyaviy va tijorat faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirish va tashkil etish, ish tartibini, Bank xodimlariga ish haqi miqdori va tizimini mustaqil belgilash;

kredit ajratilayotganda potensial qarzdorlar (kafillar, garovga qo'yuvchilar)ning o'zlaridan, davlat organlaridan va boshqa ochiq manbalardan tegishinchaligining hisobotlar, balanslar, shaxsga doir ma'lumotlar, to'lov qobiliyatini o'rganishga va kredit ta'minotiga doir boshqa zarur hujjatlar va ma'lumotlarni belgilangan tartibda olish;

homiylik va xayriya faoliyatini amalga oshirish.

28. Bank bevosita ishlab chiqarish, savdo, sug'urta faoliyati hamda banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'limgan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga haqli emas.

Ushbu bandning birinchi xatboshisida ko'rsatilgan cheklov quyidagi hollarga nisbatan tatbiq etilmaydi va Bank quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

bank kartalari asosida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimlarida foydalilaniladigan ixtisoslashtirilgan uskunani va unga doir dasturiy ta'minotni sotish yoki ijaraga berish;

o'z aktivlarini sotish;

chek daftarchalarini chiqarish, realizatsiya qilish va tarqatish;

sug'urta tashkilotlari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari nomidan sug'urta shartnomasi tuzilishini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish;

Bank o'zi muassis bo'lgan yuridik shaxslarga o'z mol-mulkini mulkiy ijara (arenda) shartnomasiga muvofiq ijaraga berish.

29. Bankka yuridik shaxslarni tashkil etish va (yoki) yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi (ustav kapitallaridagi) ulushlarni yoki aksiyalarni olish taqilanganadi, bundan quyidagilar mustasno:

kredit, sug'urta va lizing operatsiyalarini professional asosda amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

moliya bozori infratuzilmasining bir qismi bo'lgan yoki banklarga axborot va maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar;

qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

bankning kafolati ostida qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish maqsadida mazkur bankning xorijda tashkil etiladigan sho'ba tashkilotlari;

faqat inkassatsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar;

bank operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar, shu jumladan bank kartalari bilan operatsiyalarga doir hisob-kitoblar ishtirokchilari o'rtaida o'zaro bog'liqligini ta'minlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar;

fond va valyuta birjalari;

kredit byurolari;

qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozoriga joylashtirilgan aksiyalarning yigirma foizidan ortiq bo'limgan miqdorda fond birjasi listingiga kiritilgan aksiyadorlik jamiyatlar.

30. Bankning moliyaviy barqarorligini, kreditorlar va omonatchilar, aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash maqsadida, Bankning majburiyatlarini quyidagilardan iboratdir:

Bankka ishonib topshirilgan omonat (depozit) mablag'larining saqlanishini, ularni omonatchining bиринчи talabidayoq qaytarilishini ta'minlash;

o'z mijozlari va vakillarining operatsiyalari, hisobvaraqlari hamda jamg'armalariga doir shuningdek shaxsga doir ma'lumotlarni, tijorat, bank sirini tashkil etuvchi boshqa ma'lumotlarni sir saqlash;

Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan prudensial normativlarga riosa etish, Markaziy bankda mablag'lar zaxirasini yaratish maqsadida belgilangan normativlarga riosa etish bo'yicha Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan talablarni bajarish;

o'z kapitali va likvidli resurslarini yetarli darajada saqlab turish, yo'qotishlar xatarini kamaytirish maqsadida o'z aktivlarini diversifikatsiyalash;

beriladigan kreditlar ta'minoti bo'yicha garov, kafolat, kafillik va majburiyatlarning yetarlilikini hisobga oluvchi ichki normativ tartibni o'rnatish;

amaldagi qonunchilik asosida kredit, investitsiya, dividend, emissiya va boshqa siyosatlarni, bank operatsiyalarini amalga oshirishga doir boshqa ichki me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

buxgalteriya hisobi va hisobotini qonunchilikka muvofiq yuritish talablariga riosa etish;

aktiv operatsiyalar, kreditlar va lizing bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi Markaziy bank tomonidan belgilangan miqdordarda va tartibda zaxiralar tashkil etish;

Bankda ichki audit xizmatining mavjudliligini ta'minlash;

boshqa shaxslar bilan tuzgan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash;

hisobotlarni tegishli davlat organlariga belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim etish.

31. Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, aniqlash va bartaraf etish doimiy choralarini amalga oshirish maqsadida komplayns nazorat tizimini tashkil qilish, shuningdek xalqaro sanksion xatarlarni oldini olish choralariga riosa etishi lozim.

32. Bank jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablariga riosa etadi. Bank pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar ustidan ichki nazorat o'rnatadi. Bank bu sohada tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash va kamaytirishga doir ichki nazorat qoidalariga amal qiladi.

5-bob. Bank ustav kapitalining miqdori, uni ko'paytirish va kamaytirish tartibi

1-§. Bank ustav kapitalining miqdori, bankning e'lon qilingan aksiyalari

33. Bankning ustav kapitali aksiyadorlar sotib olgan bank aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Bank ustav kapitali uning mol-mulkining o'z kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan darajadagi eng kam miqdorini belgilaydi.

34. Bank hujjatsiz shaklda oddiy aksiyalarni chiqaradi va joylashtiradi. Bankning aksiyalari egasi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlardir. Aksiyalar bo'linmasdir.

35. Bankning Ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

36. Bankning ustav kapitali miqdori 200 000 000 000 (ikki yuz milliard) so'mni tashkil qiladi hamda bir donasining nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'm bo'lgan 40 000 000 (qirq million) dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi oddiy aksiyalardan iborat.

37. Ustav kapitalini oshirish maqsadida bank joylashtirilgan aksiyalarga qo'shimcha ravishda joylashtirishga haqli bo'lgan bank chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdori bir donasining nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'm bo'lgan 60 000 000 (oltmis million) dona oddiy aksiyalardan iborat.

38. Bankning ustav kapitali bank ta'sischilarini va aksiyadorlari tomonidan faqat pul mablag'lari bilan to'lanadi.

39. Bank ustav kapitalini ko'paytirish va kamaytirish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilikiga muvofiq, belgilangan tartibda va shartlarda amalga oshiriladi.

2-§. Ustav kapitalini ko'paytirish tartibi

40. Bankning Ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin. Qo'shimcha aksiyalar faqat ushbu Ustavda belgilangan, e'lon qilingan aksiyalarning soni doirasida joylashtiriladi.

41. Bank Ustav kapitalini ko'paytirish, e'lon qilingan aksiyalar sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qaror Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

42. Bank Ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha aksiyalar soni, ularni joylashtirish muddatlari hamda shartlari belgilanadi.

43. Bankning Ustav kapitalini ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda mazkur Ustavda ko'rsatilgan, e'lon qilingan muayyan turdag'i aksiyalarning soni ushbu turdag'i joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga qisqartiriladi.

44. Bank Ustav kapitalini ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, Bankning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin. Bankning o'z kapitali hisobidan Ustav kapitalini ko'paytirishda qo'shimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtaida mutanosib ravishda taqsimlanadi.

45. Bankning Ustav kapitalini uning o'z kapitali hisobidan ko'paytirishda qo'shimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtaida taqsimlanadi va har bir aksiyadorga qaysi turdag'i aksiyalar tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdag'i aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

3-§. Bankning Ustav kapitalini kamaytirish tartibi

46. Bank Ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini Bankning o'zi keyinchalik bekor qilgan holda Bank tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin. Bank Ustav kapitalini aksiyalarning bir qismini olish va bekor qilish yo'li bilan kamaytirish mumkin.

47. Ustav kapitalining kamaytirilishi Bank Ustavidagi tegishli o'zgarishlarni qayd qilish sanasida "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunida belgilangan Ustav kapitalining eng kam miqdorida kamayishiga olib kelsa, Bank Ustav kapitali miqdorini kamaytirishga haqli emas.

48. Ustav kapitalini kamaytirish va Bank Ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadi.

49. Ustav kapitalini kamaytirish vaqtida Bank tugatilganida nazarda tutiladigan aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilish shartlariga rioya etilishi zarur.

50. Bank Ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay, o'z kreditorlarini yozma ravishda xabardor qiladi. Bank kreditorlari o'zlariga bunday xabarnoma yuborilgan sanadan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay, Bankdan o'z majburiyatlarini muddatidan oldin bajarishini va Ustav kapitali kamaytirilishi bilan bog'liq zararlarning o'rmini qoplashini talab qilishga haqli bo'ladi.

6-bob. Bank aksiyalari, aksiyalarning nominal qiymati

51. Bankning aksiyalari egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar bo'lib, ular turiga ko'ra oddiy aksiyalardir.

52. Bankning barcha aksiyalarining nominal qiymati 5 000 so'm (besh ming so'm)ni tashkil etadi.

53. Bank qonunchilikda belgilagan tartibda imtiyozli aksiyalar chiqarishi mumkin.

54. Aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik yoxud jismoniy shaxs aksiyaning egasi – Bank aksiyadori deb e'tirof etiladi.

55. Bankning oddiy aksiyalari ovoz beruvchi aksiyalar bo'lib, ular o'z egasiga dividendlar olish, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida va Bankni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi.

56. Bankning imtiyozli aksiyalari egalari qonunchilikda belgilangan tartibda huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

7-bob. Bank aksiyalarini joylashtirish tartibi va shartlari, bankning korporativ obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari

57. Bank oddiy va imtiyozli aksiyalarni chiqarish va ularni joylashtirishga haqli. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati bank ustav kapitalining 25 foizidan oshmasligi lozim.

58. Bank o'zi chiqarayotgan qo'shimcha aksiyalari ochiq va yopiq obuna o'tkazish orqali joylashtiriladi.

59. Bankning aksiyalariga haq to'lash faqat pul mablag'lari bilan amalga oshiriladi.

60. Bank tomonidan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtidan e'tiboran 1 (bir) yildan oshmasligi kerak, qonunchilik hujjalarda belgilangan muddatlar bundan mustasno.

61. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan, aksiyadorlar o'rtasida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi Kuzatuv kengashi tomonidan qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon'yunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

62. Bankning qo'shimcha aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish paytida ularga haq to'lash ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilanganidan kam bo'lмаган narx bo'yicha amalga oshiriladi.

63. Bankning Ustav kapitali ko'paytirilayotganda bank qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish Bank aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi. Bankning qo'shimcha aksiyalariga ushbu aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan joylashtirish muddati ichida haq to'lanishi lozim.

64. Aksiyaning haqi to'liq to'langunga va uning yangi egasi aksiyadorlar reestrida ro'yxatga olingunga qadar aksiya ovoz berish huquqini bermaydi.

65. Bank aksiyalarini sotib olish uchun jismoniy va yuridik shaxslar yoki birligida harakat qiluvchi shaxslar, shu jumladan norezidentlar bir yoki bir necha bitim natijasida Bankning ustav kapitalidagi 5 (besh) va undan ko'proq foizni, lekin ko'pi bilan 20 (yigirma) foizni, 20 (yigirma) va undan ko'proq foizni, lekin ko'pi bilan 50 (ellik) foizni, 50 (ellik) va undan ko'proq foizni tashkil etadigan ulushni bevosita yoki bilvosita olishdan oldin Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishlari shart.

66. Norezident bo'lган jismoniy shaxslarning va xalqaro moliya institutlari, chet el banklari va boshqa kredit tashkilotlari bo'lмаган yuridik shaxslarning jami ulushi bank ustav kapitalining ellik foizidan oshmasligi kerak.

67. Bankning joylashtirilgan aksiyalarini yiriklashtirish Aksiyadorlar umumiyligining qaroriga muvofiq amalga oshiriladi va mavjud ikki yoki undan ortiq aksiya xuddi shu turdag'i bitta yangi aksiyaga ayriboshlanadi. Bunda Bank Ustaviga aksiyalarning nominal qiymati va soniga doir tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

68. Bankning joylashtirilgan aksiyalarini maydalash Aksiyadorlar umumiyligining qaroriga muvofiq amalga oshirilishi mumkin va buning natijasida Bankning bir aksiyasi xuddi shu turdag'i ikki yoki undan ortiq aksiyaga ayriboshlanadi. Bunda Bank Ustaviga aksiyalarning nominal qiymati va soniga doir tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

69. Bank korporativ obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga va joylashtirishga haqlidir. Korporativ obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga haq to'lash pul mablag'lari bilan amalga oshiriladi. Bankning korporativ obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari Kuzatuv kengashi qaroriga asosan qonunchilikda belgilangan tartibda chiqariladi va joylashtiriladi.

8-bob. Bank aksiyalari (aksiyalarining bir qismi) boshqa aksiyadorlarga va/yoki uchinchi shaxslarga o'tishi

70. Bank aksiyadorlari o'zlariga tegishli bo'lган aksiyalarni qonunchilik va mazkur Ustavda nazarda tutilgan aksiyadorlarning imtiyozli huquqini hisobga olgan holda istalgan shaxslarning tasarrufiga o'tkazishlari mumkin.

71. Bankning aksiyadorlari boshqa aksiyadorlar tomonidan sotilayotgan aksiyalarni uchinchi shaxsga taklif etilgan narxlarda va shartlarda sotib olishda imtiyozli huquqqa egadirlar. Imtiyozli huquqdan to'la/qisman foydalanish to'g'risidagi bildirishnomada aksiyadorning ismi (nomi), yashash joyi (joylashgan joyi) va sotib olmoqchi bo'lган aksiyalarning soni aks ettirilgan bo'lishi va Bankka mazkur Ustavda imtiyozli huquqdan foydalanish uchun belgilangan muddat mobaynida jo'natalishi lozim.

72. Aksiyadorlar sotuvga taklif qilingan aksiyalarning hammasini yoki ularning istalgan qismini imtiyozli sotib olish huquqiga egadirlar.

73. Bank tomonidan belgilangan tartibda qo'shimcha aksiyalar muomalaga chiqarilganda, aksiyadorlar Bank Ustav kapitalidagi ulushiga mutanosib ravishda imtiyozli sotib olish huquqiga ega bo'ladi.

74. Basharti, bir necha aksiyadorlar sotuvga taklif qilingan Bank aksiyalarini sotib olishda imtiyozli huquqdan foydalanish to'g'risidagi istaklarini ma'lum qilsalar va boshqa aksiyador/lar Bank aksiyalarini sotish istagida bo'lsa/lar, sotilayotgan aksiyalarning umumiyligini aksiyalarni sotib olishga qiziqish bildirgan aksiyadorlar o'rtaida, ularning har biriga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

75. Agar aksiyador yoki aksiyadorlar aksiyalarni sotib olishga oid imtiyozli huquqlaridan foydalanmasa/lar yoki qisman foydalansa/lar, aksiyalarni/aksiyalarning qolgan qismini Bank aksiyalarini sotish istagini bildirgan aksiyador uchinchi shaxsga mazkur shartlarda sotish huquqiga ega.

76. O'z aksiyalarini uchinchi shaxsga sotmoqchi bo'lган Bank aksiyadori aksiyalarning

sotuv narxini va boshqa shartlarni ko'rsatgan holda Bankning boshqa aksiyadorlarini va Bankning o'zini yozma ravishda xabardor etishi shart. Bank aksiyadorlariga Bank orqali xabar yuboriladi.

77. Aksiyadorlarning imtiyozi huquqini amalga oshirish muddati aksiyalar sotuvga taklif etilgan paytdan boshlab 15 (o'n besh) kunni tashkil etadi. Imtiyozi huquqni amalga oshirish muddati, basharti u tugab bitgunga kadar Bankning barcha aksiyadorlaridan imtiyozi huquqdan foydalanish yoki foydalanishdan bosh tortish to'g'risida yozma xabar olingan taqdirda tugaydi.

78. Mazkur imtiyozi huquqni boshqa shaxsga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Quyidagi hollarda aksiyadorlarning imtiyozi huquqi qo'llanilmaydi (aksiyadorlarning roziligi olinmaydi):

Bank tomonidan o'z aksiyalarini sotib olinganda;

mulk huquqi asosida aksiyadorning merosxo'rlari yoxud yuridik shaxs hisoblanadigan aksiyadorning huquqiy vorislariga aksiyalarga egalik qilish huquqi o'tayotganda;

aksiyalar yaqin qarindoshlarga hadya qilib berilganda;

aksiyalar garovga qo'yilganda.

79. Aksiyalar sotuvining imtiyozi huquqi buzilib sotilganda, Bankning istalgan aksiyadori sud tartibida ularga xaridorning huquq va majburiyatları o'tkazilishini talab qilishga haqli. Aksiyalarni sotib olish va sotishga doir barcha nizolar sud tartibida hal etiladi.

80. Aksiyalarni Bank tomonidan olish vaqtida ularga haq to'lash pul mablag'lari bilan, shuningdek Bankning boshqa mulklari berish orqali amalga oshiriladi. Bank tomonidan aksiyalarni olish narxi ularning bozor qiymatiga muvofiq belgilanadi.

9-bob. Bank aksiyadorlarining huquq va majburiyatları

81. Bankning oddiy aksiyalari egalarining huquqlari quyidagilardan iborat:

Bankning aksiyadorlari reestriga kiritilish;

depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;

Bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;

Bank tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish.

Bankning oddiy aksiya egalari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali Bankni boshqarishda ishtirok etish;

Bankning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;

olgan dividendini erkin tasarruf etish;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;

o'ziga yetkazilgan zararning o'mi qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan, boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish;

Bank aksiyalari beradigan huquqlarni (huquqlarning bir qismini) qonunchilikda belgilangan tartibda ishonchnoma asosida o'z vakiliga (vakillariga) berish;

Bank tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar va ular bo'yicha foiz stavkalari va vositachilik haqi miqdori (Bank tariflari) to'g'risida axborot olish;

Bank aksiyadorlari qonunchilikka va mazkur Ustavga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'ladilar.

82. Bankning imtiyozi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar Bank

Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqiga ega emas, ular faqat quyidagi masalar bo'yicha ovoz berish huquqiga ega bo'ladilar:

Bankni qayta tashkil etish va tugatish;

Bank Ustaviga imtiyozli aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklaydigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

qonunchilikda va ushbu Ustavda ko'rsatilgan boshqa hollarda.

Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilinmagan yoki dividendlarni to'liq to'lamaslik to'g'risida qaror qabul qilingan Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan keyingisidan boshlab Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida uning vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin bo'ldi.

83. Bankning oddiy aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar ushbu Ustavga muvofiq Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, Bank tugatilgan taqdirda esa, Bank mol-mulkining bir qismini olish huquqiga ega.

84. Bankning 5 (besh) foizdan kam bo'limgan oddiy aksiyalari egalari Kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi, foydani taqsimlash, Boshqaruv va nazorat organlari a'zoligiga ularning nomzodini (umumiy yig'ilish o'tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko'rsatish yuzasidan taklif kiritishga haqli.

85. Bankning barcha aksiyadorlariga, ularning ulushi, daromad darajasi, jinsi, irqi, dini millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar bir xil munosabat ta'minlanadi.

86. Har bir oddiy aksiya egasi hisoblangan aksiyadorga bir xil huquqlar beriladi. Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.

87. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va belgilangan tartibda Qimmatli qog'ozlarning markaziy depozitariysi va/yoki investitsiya vositachisi tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

88. Bank aksiyadorlarining majburiyatlar:

mazkur Ustavda ko'rsatilgan tartibda, miqdor va usullarda aksiyalarning narxini to'lash; ushbu Ustav va Bankning boshqa tegishli ichki hujjatlari talablariga rioya qilish;

"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, mazkur Ustavda nazarda tutilgan tartibda Bank boshqaruv organlarining qarorlariga amal qilish;

bank sirini, tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni va boshqa Bankning konfidensial ma'lumotlarini oshkor qilmaslik;

"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunda, qonuchilikda ko'rsatilgan hollarda va tartibda Bank tomonidan so'rab olinadigan axborotni taqdim etish;

Bank aksiyadorlari "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlar" va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun, boshqa qonuchilik hujjatlari va mazkur Ustavda nazarda tutilgan boshqa majburiatlarga ham ega bo'ladilar.

89. Bankning minoritar aksiyadorlari Bank Boshqaruv faoliyati bilan bog'liq maxfiy hujjatlarni va tijorat sirini tashkil qiluvchi hujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va ulardan foydalanish orqali Boshqaruv faoliyatiga to'sqinlik qilmasliklari lozim. Aksiyadorlar (muassisalar) o'rtasida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish choralar Bankning alohida ichki me'yoriy hujjatida belgilanadi.

10-bob. Bank foydasini taqsimlash, dividendlar to'lash va zararni qoplash tartibi

90. Bankning foydasi operatsion xarajatlar, moddiy va ularga tenglashtirilgan xarajatlar, shuningdek aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasini chegirma qilgan holda Bank faoliyatining barcha turlaridan keladigan tushumdan tashkil topadi.

91. Bank o'z faoliyatidan cheklanmagan miqdorda foyda olish va uni o'z xohishiga ko'ra mustaqil tasarruf etish huquqiga egadir.

92. Byudjetga soliqlar to'langandan va fondlarga ajratmalar o'tkazilgandan keyin qolgan foyda Bank Aksiyadorlarining umumiyligi yig'ilishi belgilagan tartibda ishlataladi. Bankning sof foydasi Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishining qaroriga muvofiq taqsimlanadi. Bank sof foydasidan zaxira fondlar tashkil etishga, dividendlar to'lashga hamda boshqa maqsadlarga yo'naltirilishi mumkin.

93. Taqsimlanmagan foyda Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi qarori bilan Ustav kapitalining ko'paytirilishiyo'naltirilishi mumkin.

94. Dividend Bank sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir. Dividendlar Bank tasarrufida qoladigan sof foydadan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

95. Bank aksiyadorlariga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Bank aksiyadorlarining reestrida qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga ega bo'ladi. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

96. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra, agar ushbu Qonun va jamiyat ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

97. Bank dividendlarni kapitallashtirishga yo'naltirish maqsadida moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

98. Dividendlar birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar, so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash uchun zaxira fondi tarkibida alohida modda ajratiladi.

99. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror jamiyat kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas.

100. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugaydigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Dividend Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Bankning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin. Dividendlar to'lash muddati va tartibi Bank Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi qarori bilan belgilanadi. Dividendlar to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan keyingi kundan e'tiboran 60 (oltmish) kundan kech bo'lmasligi kerak.

101. Agar dividendlar to'lash oqibatida Bankning moliya-xo'jalik ahvoli jiddiy tarzda yomonlashadigan bo'lsa, dividendlar to'lash ta'qilanganadi.

102. Bank aksiyadorlarga dividendlar to'lash, shuningdek bankning kuzatuv kengashi, boshqaruvi a'zolari va xodimlarini mukofotlash orqali foydani taqsimlashni quyidagi hollarda

amalga oshirishga haqli emas:

prudensial normativlar Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq bo'lmaganda yoki ular mazkur taqsimlash oqibatida buzilganda;

to'lovga qobiliyatsiz bo'lganda yoki mazkur taqsimlash oqibatida to'lovga qibiliyatsizlik alomatlari yuzaga kelganda;

Markaziy bankning ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmasida aks ettirilgan, shu jumladan axborotni oshkor etish borasida ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilmaganda yoki ularni bartaraf etish imkoniyati mavjud bo'lmaganda;

Markaziy bankning foydani taqsimlomaslik to'g'risida bankka nisbatan talabi mavjud bo'lganda.

103.Bank quyidagi hollarda foydani taqsimlash uchun Markaziy bankning roziligini olishi kerak:

ushbu band birinchi xatboshisida ko'rsatilgan to'lovlarining umumiyligi summasi bankning o'z kapitalining o'n foizidan ortganda;

joriy yoki o'tgan chorakda va (yoki) moliya yilida zarar mavjud bo'lganda.

104.Bank dividendlar miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi. Bank aksiyalar bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

105.To'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining va Bankning rasmiy veb-saytlarida qonunchilikda belgilangan muddatlarda e'lon qiladi.

106.Bankning Dividend siyosati amaldagi qonunchilik va Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga binoan Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.

107.Agar boshqa mablag'lar mavjud bo'limasa, Bankning zararlari qonunchilikda belgilangan tartibda zaxira fondi hisobidan qoplanadi.

11-bob. Bankning o'z mablag'lari, zaxira fondi va kredit resurslari

108.Bankning o'z mablag'lari uning Ustav kapitali, qo'shilgan kapital, zaxira fondlari, taqsimlanmagan foya, Bank faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa daromadlar hisobidan tashkil etiladigan va amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa fondlar, qonunchilik bilan belgilangan boshqa mablag'lardan tashkil topadi.

109.Bankda Ustav kapitalining 15 (o'n besh) foizidan kam bo'lmagan miqdorda zaxira fondi tuziladi. Zaxira fondi belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydaning 5 (besh) foizidan kam bo'lmagan miqdorda ajratmalar o'tkazish orqali shakllantirilib boriladi. Zaxira fondi to'laligicha yoki qisman sarflangan hollarida, majburiy ajratmalardan tiklanadi.

110.Bankning zaxira fondi ko'rilgan zararni qoplash, Bank obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va qonunchilikka muvofiq aksiyalarni sotib olishni talab qilish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning talabiga binoan aksiyalarni sotib olish uchun mo'ljallanadi. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalinish mumkin emas.

111.Bank sof aktivlarining qiymati buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha, Bank aktivlari va majburiyatlarining umumiyligi summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

112.Bankning kredit resurslari quyidagilar hisobiga shakllanadi:

Bankning o'z mablag'lari (sotib olingan asosiy vositalar qiymati, boshqa yuridik shaxslarning Ustav fondiga yoki Ustav kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalardan tashqari);

mijozlarning bank hisobvaraqlaridagi mablag'lari;

fuqarolarning muayyan muddatga va talab qilib olinguncha jalb qilingan omonatlari; boshqa banklarning depozitlari va kreditlari;

imzolangan bitimlar va shartnomalarga muvofiq jalb qilinadigan, xalqaro moliya tashkilotlari, chet el davlatlarning banklari va korxonalari mablag'lari;

obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar joylashtirish natijasida jalb etilgan mablag'lar; Bank tomonidan jalb qilingan boshqa mablag'lar.

12-bob. Bankning boshqaruv organlari

113. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Bankning Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi Bankning boshqaruv organlaridir.

114. Bankning barcha mansabdor shaxslari Bank manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari, o'z vazifalarini professional asosda amalga oshirishlari, qonunchilik, mazkur Ustav va Bank Boshqaruv organlari qarorlaridan kelib chiquvchi barcha majburiyatlarni vijdowan va oqilona bajarishlari lozim.

115. Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zolari, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlari benuqson ishchanlik obro'siga, bank tavakkalchiliklarining samarali boshqarilishini, o'z vakolatlari doirasida asosli qarorlar qabul qilinishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tajribaga, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

116. Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zoligiga hamda muhim ahamiyatga ega xodimlar lavozimlariga ko'rsatilayotgan nomzodlar ularning lavozimga kirishishidan oldin Markaziy bank bilan kelishiladi.

1-§. Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi

117. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Bankning yuqori boshqaruv organidir.

118. Bank Aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi har yili moliya yili tugaganidan keyin 6 (olti) oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

119. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida Kuzatuv kengashi, Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi va Taftish komissiyasini saylash masalalari hal etiladi. Shuningdek, Bankning yillik hisobotini tasdiqlash, foyda va zararlarni taqsimlash, bank Boshqaruvi va Kuzatuv kengashining bank rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rayotgan chora-tadbirlari to'g'risidagi hisobotlari hamda boshqa masalalar ko'rib chiqiladi.

120. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasini belgilash, aksiyadorlarni xabardor qilish, yig'ilishni o'tkazish tartibini belgilash hamda yig'ilish o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning ro'yxati Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

121. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan boshqa o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlar navbatdan tashqari umumiy yig'ilish hisoblanadi. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi asosida, taftish komissiyasining (taftishchining) yozma talabi, shuningdek yozma talab taqdim etilgan sanada jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o'tkaziladi. Amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq Markaziy bank aksiyadorlarning navbatdan tashqari yig'ilishini chaqirishga va uning kun tartibini belgilashga haqli.

122. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

Bank ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, bankning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

Bankni qayta tashkil etish;

Bankni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

Bank kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida nizom, bank Kuzatuv kengashi to'g'risida nizom, Bank boshqaruvi to'g'risida nizomlarni tasdiqlash.

Sanoq komissiyasining miqdor va shaxsiy tarkibini tasdiqlash;

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash;

Aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;

E'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

aksiyalarni joylashtirish narxini belgilash;

Bank ning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish;

o'z aksiyalarini olish;

taftish komissiyasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

Boshqaruv a'zolari bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish uni qayta tuzish yoki bekor qilish;

yillik hisobotni, shuningdek bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Bankni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

foyda va zararlarni taqsimlash;

zaxira va boshqa fondlarini tashkil etish;

vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Bankni boshqarishga doir qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining xulosalarini eshitish;

imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida qonunchilikda nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;

"Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 84-moddasida nazarda tutilgan hollarda Bank tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

"Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 9-bobida nazarda tutilgan xollarda Bank tomonidan bitimlar tuzish xaqida qarorlar qabul qilish;

majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

qonunchilikka muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Bankning ijroiya organi vakolatiga berilishi mumkin emas.

Qonunchilikka ko'ra Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan quyidagi masalalar Bankning Kuzatuv kengashiga hal qilish uchun berilgan:

ustav fondini ko'paytirish, shuningdek Bank ustaviga ustav fondini ko'paytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayriboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

korporativ obligatsiyalarni qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

Bankning ijroiya organini tuzish, uning raxbarini saylash (tayinlash), rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Bank ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash

Bankning yillik biznes-rejasini tasdiqlash.

123.Bankning ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin o'ttiz kundan

kechiktirmay, aksiyadorlarning yillik umumi yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda jamiyatning kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga ushbu kengashning va komissiyaning son tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli. Kuzatuv kengashi kiritilgan bunday takliflarni ko'rib chiqishi va Ustavning ushbu bandida ko'rsatilgan muddat tugaganidan so'ng, 10 (o'n) kundan kechiktirmay, ularni Aksiyadorlar umumi yig'ilishi kun tartibiga kiritish yoki kiritishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi lozim.

124.Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumi yig'ilishi bank Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi asosida, taftish komissiyasining yozma talabi, shuningdek yozma talab taqdim etilgan sanada jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o'tkaziladi.

125.Bank taftish komissiyasining yoki jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabiga ko'ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumi yig'ilishini chaqirish aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumi yig'ilishini o'tkazish haqida yozma talab taqdim etilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

126.Bankning taftish komissiyasi yoki jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumi yig'ilishini chaqirish to'g'risida talab taqdim etgan sanadan e'tiboran o'n kun ichida bank kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumi yig'ilishini chaqirish to'g'risida yoki yig'ilishni chaqirishni rad etish haqida yozma qabul qilishi kerak.

127.Aksiyadorlarning umumi yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar qonunchilikda belgilangan muddatda Korporativ axborot yagona portalida, Bankning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadollarga elektron pochta orqali yuboriladi.

128.Aksiyadorlarning umumi yig'ilishida ishtirok etish huquqiga mazkur yig'ilish o'tkaziladigan rasmiy e'lon qilingan sanadan 3 (uch) ish kuni oldin shakllantirilgan Bank aksiyadorlari reestrida qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

129.Aksiyadorlarning umumi yig'ilishini Kuzatuv kengashining Raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'limgan taqdirda esa, Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi. Umumi yig'ilish Raisi yig'ilishni audio-video yozuvi va internet tarmog'idagi translyatsiyasiga ruxsat berish masalasini hal qiladi.

130.Aksiyadorlarning umumi yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 50 (ellik) foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, Aksiyadorlarning umumi yig'ilishi vakolatlari (kvorumga ega) bo'ladi.

131.Aksiyadorlar umumi yig'ilishi qarorlari, agar qonunchilikda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, Bankning ovoz beruvchi aksiyalarini egalari bo'lgan, umumi yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik (oddii ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

132.Quyidagi masalalar bo'yicha qarorlar Aksiyadorlar umumi yig'ilishi tomonidan yig'ilishda ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarining egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rtdan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi:

Bank Ustaviga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish yoki Bankning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash;

Bankni qayta tashkil etish;

Bankni tugatish, Tugatish komissiyasini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

e'lon qilingan aksiyalarining eng ko'p miqdorini belgilash;

Kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Bankni boshqarishga doir qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan hisobotlarini eshitish;

qonunchilikda ko'rsatilgan hollarda yirik bitimlar va Bankning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish haqida qarorlar qabul qilish.

133.Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida aksiyadorlar vakili sifatida ishtirok etuvchi Boshqaruv raisi va Boshqaruv a'zolari o'zлari bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar bo'yicha ovoz berish huquqiga ega bo'lmaydi.

134.Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish "Bankning ovoz beruvchi bitta aksiyasi - bitta ovoz" tamoyili, Kuzatuv kengashi a'zolarini saylashda esa kumulyativ ovoz berish asosida ovoz berish byulletenlari orqali yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib amalga oshiriladi.

135.Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin 10 (o'n) kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham Umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

136.Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida:

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

bankning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo'Iga ovozlarning umumiy soni;

umumiy yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning soni;

umumiy yig'ilishning raisi va kotibi, yig'ilish kun tartibi ko'rsatiladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida ma'ruzalarning asosiy qoidalari, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar ko'rsatiladi.

137.Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'minlashga ega bo'lgan qarorlar va ovoz berish yakunlari, ya'ni yig'ilish bayonnomasidan ko'chirma ushbu qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay aksiyadorlar e'tiboriga kuzatuv xati orqali yetkaziladi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlari barcha (Umumiy yig'ilishda qatnashgan va qatnashmagan) aksiyadorlar uchun majburiydir.

138.Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini tashkillashtirish va o'tkazish bilan bog'liq boshqa masalalar amaldagi qonunchilik, "Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi Nizom va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish reglamenti bilan tartibga solinadi.

139.Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, kvorumni aniqlash, ovoz berish byulletenlarini tarqatish va ovozlarni sanab chiqish uchun Kuzatuv kengashi tomonidan Sanoq komissiyasi tuzilib, uning a'zolari miqdor va shaxsiy tarkibi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Sanoq komissiyasi o'z faoliyatini amaldagi qonunchilik muvofiq amalga oshiradi.

2-§. Bank Kuzatuv kengashi

140.Kuzatuv kengashi Bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, qonunchilik va Bank Ustaviga asosan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

141.Kuzatuv kengashi boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi.

142.Kuzatuv kengashi bankni samarali va tadbirli boshqarishni, shu jumladan Bank boshqaruvi a'zolari o'rtasida vakolatlarning hamda javobgarlikning taqsimlanishini, manfaatlar to'qnashuvining oldi olinishini va bartaraf etilishini ta'minlaydigan boshqaruv tashkiliy tuzilmasini belgilaydi hamda uning joriy etilishi ustidan nazorat va tekshiruvni amalga oshiradi.

143.Kuzatuv kengashi tavakkalchiliklarni boshqarish tizimining samarali joriy etilishini ta'minlashga hamda uning ustidan nazoratni amalga oshirishga mas'ul bo'lib hisoblanadi va

qonunchilikda belgilangan tavakkalchiliklarni boshqarishga doir vazifalarni bajaradi.

144.Kuzatuv kengashi ishining samaradorligini ta'minlash, eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va Kuzatuv kengashiga taklif va tavsiyalar tayyorlash uchun Kuzatuv kengash a'zolari orasidan belgilangan tartibda qo'mitalar tashkil etilishi mumkin.

145.Kuzatuv kengashi o'z faoliyatini amaldagi qonunchilik, mazkur Ustav, Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi qarori bilan tasdiqlanadigan "Bank Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq amalga oshiradi.

146.Bank Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

Bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Bank Boshqaruving hisobotini muntazam ravishda eshitib borish;

Aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishlarini chaqirish, qonunchilikda nazarda tutilgan xollar bundan mustasno;

Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;

Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Bank aksiyadorlari reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

ustavga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, uni yangi tahrirda tasdiqlash masalalarini Aksiyadorlik umumiyligi yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish, Kuzatuv kengashi vakolatiga berilgan masalalar bundan mustasno;

mol-mulkining bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

aksiyalarni chiqarilishi to'g'risidagi qaror va emissiya risolasini tasdiqlash, shuningdek avval ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilish;

yillik biznes-rejani tasdiqlash;

korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayriboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida va korporativ obligatsiyalarni qaytarib sotib olish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

depozit sertifikatlari va boshqa qarz majburiyatlarini, shuningdek qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

Boshqaruvi Raisi va a'zolarini tayinlash, ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish

Bankning ijroiya organi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorini belgilash;

ichki audit xizmatini tashkil etish, uning xodimlarini tayinlash va Ichki audit xizmati to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash, har chorakda Ichki audit xizmati hisobotlarini eshitib borish;

Boshqaruv faoliyatiga dahldor har qanday hujjatdan erkin foydalanish va Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun Bank Boshqaruvidan tegishli hujjatlarni olish (Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishlari mumkin);

aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori, ularni to'lash shakli va tartibi yuzasidan takliflar kiritish;

qonunchilik va bank ichki hujjatlarida belgilangan tartibda yirik bitimlar va bankka aloqador shaxslar, affilangan shaxslar bilan bitimlar tuzish;

zaxira fondi va boshqa fondlaridan foydalanish to'g'risidagi Boshqaruv takliflarini ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

Bank filiallarini hamda vakolatxonalarini tashkil etish, ochish va tugatish, ularning nizomlarini tasdiqlash va o'zgartirish kiritish;

Bankning sho'ba va tobe jamiyatlarini tashkil etish masalalarini xal etish;

qonunchilikda belgilangan tartibda Bankning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni tuzish haqida qaror qabul qilish;

qonunchilikda belgilangan doirada barcha aksiyadorlarga ma'lumotlarni oshkor etgan tarzda homiylik (xayriya) ko'rsatish tartibi va shartlarini belgilash hamda bu borada qarorlar qabul qilish;

Bank korporativ maslahatchisini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlash bo'yicha qaror qabul qilish;

xodimlar mehnatiga haq to'lash va ularni rag'batlantirish shartlari va tizimini belgilash;

Bankning strategik maqsadlarini, kredit, emissiya, kadrlar, investitsiya, dividend, Bankning tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to'g'risida xabardor etish (tavakkalchiliklarni boshqarish) siyosatlarini, kapitalning yetarlilikini lozim darajada saqlab turish siyosatini, shuningdek risk-appetit bayonoti, yangi mahsulotlarni joriy etish siyosati, stress-test o'tkazish tartibini, Bankning boshqa siyosatlarini va tegishli ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish;

aktivlarni tasniflash asosida aktivlar bo'yicha ehtimoldagi zararlarga qarshi yaratiladigan zaxiralar shakllantirilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek kapital va umumiylarining yetarli darajada saqlab turilishini ta'minlash;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish siyosati, korrupsiyani oldini olish choralar, odob axloq qoidalarini tasdiqlash;

Bankning moliyaviy holatini tiklash rejalarini tasdiqlash;

Bank Boshqaruv faoliyati nazoratini amalga oshirish;

boshqarish tizimi samaradorligini davriy baholashni amalga oshirish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli choralarini ko'rish;

aktiv operatsiyalar, shu jumladan kredit, lizing, qarz, faktoring, savdoni moliyalashtirish va kafolat hamda bank balansiga qarz evaziga qabul qilinayotgan mol-mulklar shuningdek, bank faoliyati uchun zarur bo'lgan xaridlar limitlarini ichki hujjatlarda belgilash;

bir yilda kamida bir marta amalga oshirilgan nazorat va tekshiruv faoliyati to'g'risida Aksiyadorlarning umumiylarini yig'ilishiga hisobot taqdim etish;

amaldagi qonunchilik, ushbu Ustav va Bankning boshqa ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni hal etish.

147. Kuzatuv kengashining vakolatlar doirasiga kiritilgan masalalarni hal qilish uchun Bank Boshqaruviga o'tkazilishi mumkin emas.

148. O'z ishining samaradorligini ta'minlash uchun kengash maxsus qo'mitalar jumladan, audit qo'mitasi, tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitasi, mukofotlash qo'mitasi, shuningdek, boshqa qo'mitalar tashkil etishi mumkin.

149. Har bir qo'mitaning ishlash tamoyillari, vakolatlari, majburiyatlar, vazifalari, ish tartibi, yig'ilishlar davriyligi hamda kengashga hisobotlar taqdim qilish tartibi va muddatlar, shuningdek, boshqa masalalarni qamrab olgan qo'mitalar to'g'risida nizomlar Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

150. Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlariga va mazkur Ustavga muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin.

151. Kuzatuv kengashining tarkibi 5 (besh) kishidan iborat. Kuzatuv kengashi a'zolari Aksiyadorlar umumiylarini yig'ilishi qarori bilan kumulyativ ovoz berish orqali 3 (uch) yil muddatga saylanadi. Bankning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar va ularning vakillari Kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishlari mumkin. Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishlari mumkin.

152. Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun, "Bank Kuzatuv kengashi to'g'risida Nizom"da

belgilab qo'yiladi.

153.Kengash a'zolari o'z vazifalarini bajarishga ularning nomzodlari Markaziy bank bilan kelishib olinadi.

154.Kuzatuv kengashining raisi kengash a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, Kengash tarkibidan uning a'zolari tomonidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

155.Kuzatuv kengashi raisi uning ishini tashkil etadi, majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnomma yuritilishini ta'minlaydi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida raislik qiladi. Kengash raisi bo'limgan taqdirda, uning vazifasini Kengash a'zolaridan biri amalga oshiradi.

156.Kuzatuv kengashi majlisi uning raisi tashabbusiga ko'ra, Kuzatuv kengashi, Boshqaruv a'zosining, Ichki audit xizmati xizmati rahbari, tashqi auditor, shuningdek jami aksiyalarning kamida 5 (besh) foiziga ega bo'lgan aksiyador/aksiyadorlar yozma talabiga binoan chaqiriladi. Kengash majlisini chaqirish haqidagi yozma talabda uni chaqirish/o'tkazish sabablari va kun tartibi ko'rsatilishi kerak.

157.Kengash majlisi unda saylangan Kengash a'zolarining 75 (yetmish besh) foizi ishtirok etganda, vakolatli (kvorum to'plangan) deb hisoblanadi. Agar qonunchilikda va mazkur Ustavda boshqa qoida belgilanmagan bo'lsa, Kuzatuv kengashi majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning 2/3 kismi ovozi bilan qabul qilinadi.

158.Bank Ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi va Bank Ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritishni ma'qullash Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

159.Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda Kengash raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

majlisda ishtirok etadigan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar;

majlisning kun tartibi;

ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari; qabul qilingan qarorlar.

160.Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

161.Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Kuzatuv kengashi a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davrda haq to'lanishi va Kuzatuv kengashning a'zosi vazifasini bajarish bilan bog'liq xarajatlari qoplanishi mumkin.

162.Kuzatuv kengashi a'zolari Bank va uning aksiyadorlari oldidagi o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganliklari uchun qonunchilikka va mazkur Ustavga muvofiq javobgar bo'ladilar. Kuzatuv kengashi majlisida ovoz berishda qatnashmagan yoki Bankka zarar yetkazishga olib kelgan qaror uchun qarshi ovoz bergen Bank Kuzatuv kengashi a'zolari javobgar bo'lmaydi.

3-§. Bank Boshqaruvi

163.Bank Boshqaruvi ijro etuvchi organi bo'lib, Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq Bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi.

164.Boshqaruv faoliyatiga Boshqaruv raisi rahbarlik qiladi. Bank Boshqaruvi 5 (besh) nafar a'zodan iborat bo'lib, u Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi vakolat doirasiga kiritilgan masalalardan tashqari Bankning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalarni hal etish vakolatiga ega.

165.Bank Boshqaruvi tarkibiga Boshqaruv raisi, uning o'rnibosarlari, Bosh buxgalter, yuridik xizmat rahbari, shuningdek Bankning boshqa asosiy tarkibiy bo'linmalar rahbarlari kirishi mumkin.

166.Bank Boshqaruvi Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi va Kuzatuv kengashiga hisobdor va ularning qarorlarining ijrosini tashkil etadi.

167.Boshqaruv raisi va Boshqaruv a'zolari o'z vazifalarini bajarishga ularning nomzodlari Markaziy bank bilan kelishib olingandan so'ng kirishadi.

168.Boshqaruv Raisi va Boshqaruv a'zolari bilan shartnoma 3 (uch) yil muddatga tuziladi, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish masalasi har yili tegishli Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishida ko'rib chiqiladi va qaror qabul qilinadi. Boshqaruv a'zolari bilan mehnat shartnomalarini Bank nomidan Bank Boshqaruvi Raisi imzolaydi.

169.Boshqaruv a'zolarining huquqlari va majburiyatları Bank qonunchiliga doir hujjatlar, Bank Ustavi, Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi qarori bilan tasdiqlanadigan "Bank Boshqaruvi to'g'risida Nizom" hamda ularning har biri bilan tuziladigan shartnomaga muvofiq belgilanadi.

170.Bank Boshqaruvining majlisi zarur hollarda, biroq bir oyda kamida bir marta o'tkaziladi.

171.Bank Boshqaruvining majlisi unda Boshqaruv a'zolarining kamida 60 (oltmis) foizi ishtirok etganda, masalalarni hal qilishga to'la huquqli (vakolatli) bo'ladi. Bank Boshqaruvining qarori majlisda qatnashayotgan Boshqaruv a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, Boshqaruv Raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Qabul qilingan qarorga rozi bo'limgan Boshqaruv a'zosi o'z fikrini Kuzatuv kengashiga bildirish huquqiga ega.

172.Bir yil davomida Boshqaruv majlisida ko'rilgan masalalar yuzasidan Boshqaruv a'zolarining ovozlari uch va undan ortiq xolatda teng bo'lgan taqdirda mazkur qarorlar yuzasidan Kuzatuv kengashiga axborot beriladi.

173.Boshqaruv majlislarini o'tkazishni Boshqaruv raisi yoki uning o'rnibosarlardan biri tashkil etadi. Majlisda bayonnomma tuziladi va u majlisga raislik qiluvchi hamda Boshqaruvning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi. Boshqaruv majlisining bayonnomasi Kuzatuv kengashi a'zolariga, auditorga ularning talabiga binoan taqdim etiladi.

174.Boshqaruvning vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi, Kuzatuv kengashida muhokama etiladigan masalalar yuzasidan bank Kuzatuv kengashiga talab etilgan tegishli hujjatlarni tayyorlaydi va taqdim etadi.

Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlari ijrosini tashkil etadi va ta'minlaydi;

depozitlarni qabul qilish, aktivlarni joylashtirish, kreditlashni tashkil etish, hisob-kitoblar, pul muomalasi, kassa xizmati, tashqi iqtisodiy faoliyat va bank faoliyatiga oid boshqa amaliyotlarni tashkil etish masalalarini ko'rib chiqadi;

har chorakda Kuzatuv kengashiga Bankning moliyaviy holati, biznes va moliyaviy reja ijrosi haqida hisobot taqdim etadi;

bank xizmatlarining yangi turlarini ishlab chiqadi va joriy etadi;

hisob-kitob xizmatlari ko'rsatish, kredit, pul va to'lov hujjatlari va xat-hujjatlarni rasmiylashtirishning umumiyligi shartlari va tartibini qonunchilikda belgilangan tartibda belgilaydi;

kredit, investitsiya, dividend, emissiya va kadrlar siyosatlarini, shuningdek qonunchilik bilan o'rnatilgan boshqa siyosatlari va Bankning rivojlantirish strategiyasini, Biznes rejasini ishlab chiqadi hamda ularni Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi va Kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun kiritadi. Bankning kredit va boshqa siyosatlari, bankni rivojlantirish strategiyasini, Biznes-rejasi ijrosini ta'minlaydi;

kredit siyosati va kredit operatsiyalarini o'tkazishning umumiyligi shartlariga muvofiq kredit berishni amalga oshiradi, kredit hujjatlarini yuritish tartibiga rioya etilishini ta'minlaydi;

ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlaydi, Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining yoki Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan xujjatlar bundan mustasno;

Shtatlar jadvalini tasdiqlaydi, Bosh Bankning tarkibiy bo'linmalari (departament, mustaqil boshqarma va bo'limlar) nizomlarini tasdiqlaydi;

audit tekshiruvlari, taftish hujjatlari, shuningdek Bankning tarkibiy bo'linmalari, filial, vakolatxonalarini va bank xizmatlari ofislari rahbarlarining hisobotlarini ko'rib chiqadi va ular bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

Bankning amaldagi qonunchilikka rioya qilishini ta'minlaydi;

qonunchilikka va xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya hisobining yuritilishini va moliyaviy hisobotlar taqdim etilishini, shuningdek hujjatlar aylanishini va hujjatlar saqlanishinini tashkil etadi;

xodimlar, jumladan muhim ahamiyatga ega xodimlarni ishga qabul qilish va bo'shatish, ularning o'zgartirilishi (rotatsiyasi), lavozim bo'yicha ko'tarilishi, malakasini oshirish, malakali xodimlarni saqlab qolish shuningdek xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tayyorlash masalalarini hal qiladi. Xodimlar va mansabdar shaxslar o'z majburiyatlar, Odob-ahloq qoidalarini buzganda ularga nisbatan vakolatiga ko'ra intizomiyo jazo choralarini ko'radi;

strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, Bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va tavakkalchiliklar to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarlilikini lozim darajada saqlab turish siyosatini amalga oshiradi;

risk-appetit bayonoti, Tavakkalchiliklarni boshqarish siyosati va Bankning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq tavakkalchiliklarni boshqarish tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi, xususan Bankdagi tavakkalchiliklar holati, Bank faoliyatidagi sezilarli o'zgarishlar va yangi mahsulotlari haqida ma'lumotlarni aks ettiruvchi hisobotlar tayyorlaydi va Kuzatuv kengashiga har chorakda taqdim etib boradi;

amaldagi qonunchilik, Bank Ustavi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajaradi, shuningdek Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi va Kuzatuv kengashi tomonidan topshirilgan boshqa masalalarini ko'rib chiqadi va hal qiladi;

korporativ boshqaruvning zamonaviy va ilg'or uslublarini joriy etadi, O'zbekiston Respublikasining Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini tatbiq etilishini tashkil qiladi;

Bank faoliyatini samaradorligini ta'minlash maqsadida bank xizmatlari markazlari va bank xizmatlari ofislarni tashkil qiladi, ochadi va faoliyatini to'xtatadi hamda ularning nizomlarini tasdiqlaydi;

Bankning tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasini, shu jumladan vakolatlarni va javobgarlikni Bank xodimlari o'rtasida o'z vakolatlari doirasida taqsimlashni ta'minlaydi.

175.Boshqaruv raisi va a'zolari qonunchilik, mazkur Ustav va Bankning boshqa ichki me'yoriy hujjatlariga binoan Bank va aksiyadorlar oldida javobgar bo'lib hisoblanadilar.

176.Boshqaruvning vakolatlari va limitlari doirasi, vakolatlarining hajmi va miqdori Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan bankning Siyosatlarida va boshqa ichki lokal xujjatlarida belgilab qo'yiladi.

177.Bank Boshqaruvining majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

har chorakda bank Kuzatuv kengashiga bankning moliyaviy holati va faoliyati, biznes-reja ijrosi haqida hisobot taqdim etadi;

bankning samarali faoliyati, strategik rejalarining bajarilishi, uning tashabbusi bilan bank faoliyatini rivojlantirishni ko'zda tutuvchi biznes-reja va loyihalarning samaradorligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi;

Bankning kundalik faoliyatiga doir masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

tarkibiy bo'linmalari va filial rahbarlarining hisobotlarini ko'rib chiqadi va ular bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

bank audit xizmati va boshqa tekshiruvlar natijalari bo'yicha aniqlangan kamchiliklar va qonun buzilishlarni doimiy ko'rib chiqadi va ularni bartaraf qilish choralarini ko'radi;

bank faoliyatini operativ boshqarishda amaldagi qonun hujjatlariga riousha qilishini ta'minlaydi;

korporativ boshqaruvning zamonaviy va ilg'or uslublarini joriy etadi;

tashqi audit tekshiruvi va Markaziy bank tomonidan o'tkazilgan inspeksiya (tekshiruv) natijalarini Boshqaruv yig'ilishida ko'rib chiqib, tegishli choralar ko'radi;

audit tekshiruvi va Markaziy bank tomonidan o'tkazilgan inspeksiya tekshiruvlarida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda qilingan ishlar natijalarini ko'rib chiqish uchun bank kuzatuv kengashiga kiritish;

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, Kuzatuv Kengashi va Boshqaruv qarorlari, unga tegishli hujjatlar yig'ma jild sifatida bankda saqlanadi va ularning butligiga, saqlanishiga javobgar hisoblanadi. Hujjatlar bo'yicha ish yuritish, (ro'yxatga olish) tegishli bo'linma tomonidan amalga oshiriladi;

qonunchilik hujjatlari, bank ustavi hamda bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi hamda Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan strategiya va siyosatlarni amalga oshirishga doir qarorlarga riousha etgan holda majburiyatlarini o'z vakolatlari doirasida bajaradi;

o'zlarining vazifa va funksiyalarini amalga oshirishi uchun o'z vakolatlari doirasida faoliyat yuritadi;

zarur va oshkora ma'lumotni belgilangan muddatlarda olish, ular bilan bog'liq tegishli chora-tadbirlarni ko'rish hamda shaxsiy malaka va tajribaga tayangan holda qarorlar qabul qilish;

manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarmaslikka oid talablarga riousha etish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, mazkur Nizom va bankning Ustaviga muvofiq boshqa majburiyatlarini bajarishi shart.

178. Boshqaruv raisi Bankning kundalik faoliyatiga rahbarlik qiladi, bank Boshqaruvining majlisida raislik qiladi, Kuzatuv kengashining ishida maslahat ovozi bilan ishtiroy etadi.

179. Boshqaruv Raisi quyidagi vakolatlarga ega bo'ladi:

Bank nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan barcha tashkilotlarda, davlat organlarida Bank manfaatlarini ko'zlab ish tutadi;

Bank nomidan bitimlar, shartnomalar tuzadi va ishonchnomalar beradi;

lavozim maoshlarini belgilaydi;

xodimlarni, shu jumladan filial va vakolatxona rahbarlarini ishga tayinlaydi va ishdan bo'shatadi (Bosh Bank xodimlari, filial va vakolatxona rahbarlari va boshqa Bosh Bank nomenklaturasiga kiruvchi lavozimda ishlovchi xodimlar bilan mehnat shartnomasini Bank nomidan imzolaydi);

alohida o'mak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantiradi hamda intizomiy jazo choralarini qo'llaydi.

180. Bank Bosh ofisi xodimlarining lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlaydi.

181. Boshqaruv raisi boshqaruvning samarali faoliyati, korporativ qonunchilik talablariga riousha etish, bank faoliyatida tavakkalchiliklarni to'g'ri baholash va ularni kamaytirish, bank faoliyatida amaldagi qonunchilik hujjatlari, bank ichki hujjatlariga riousha etish uchun javobgar hisoblanadi.

4-§. Bank kuzatuv kengashi, boshqaruv a'zolarining javobgarligi

182. Bank kuzatuv kengashining a'zolari, boshqaruv a'zolari, shuningdek Boshqaruv

Raisi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim. Agar amaldagi qonunchilik hujjatlari va bank ichki hujjatlari ko'ra bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning bank oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.

183. Bankka zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari, boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi, bunda bankka aloqador shaxs bilan tuzilgan bitim natijasida yetkazilgan zarar holatlari mustasno.

184. Bank yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) bankka yetkazilgan zararlarning o'mini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi, Boshqaruv raisi yoki boshqaruv a'zosi, shuningdek ishonchli boshqaruvchi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

185. Bankning kuzatuv kengashi a'zosi, boshqaruv raisi yoki a'zosi, shuningdek quyidagilar natijasida bankka yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi:

chalq-ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganlik;

aksiyadorlik ejamiyatlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunida belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik;

Bankka zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan bank bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o'zları yoki bankka aloqador shaxslar tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik.

186. Bank Boshqaruvi tomonidan yirik bitim yoki bankka aloqador shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida bankka zarar yetkazilgan bo'lsa va bunda bank boshqaruvi a'zolarining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, jamiyatning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo'limgan taqdirda jamiyatning majburiyatlar bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.

13-bob. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi

187. Minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida aksiyadorlar orasidan minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi tashkil etilishi mumkin.

188. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflar Kuzatuv kengashiga belgilangan muddatlarda kiritiladi.

189. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining a'zolarini saylashda aksiyadorlarning umumy yig'ilishida hozir bo'lgan va Kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatmagan yoxud aksiyadorlarning o'tkazilayotgan umumiyligi yig'ilishida Kuzatuv kengashiga nomzodlari saylanmagan aksiyadorlar ishtirok etadi.

190. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga Boshqaruv raisi, boshqaruv a'zolari, shuningdek Kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga saylangan shaxslar kirishi mumkin emas.

191. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolatiga quyidagilar kiradi:

aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritilayotgan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishga oid masalalar bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etish;

minoritar aksiyadorlarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risida murojaatlar kiritish;

qonunchilikka va Bank ustaviga muvofiq boshqa masalalarni ko'rib chiqish.

192. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining qarorlari oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining majlislari uning miqdor tarkibiga saylangan shaxslarning kamida to'rtadan uch qismi hozir bo'lqanda vakolatlidir.

193. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolari soni besh kishidan iborat bo'ladi.

194. Minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi qabul qilingan qarorlar to'g'risida har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beradi.

195. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining raisi ushbu qo'mita tarkibidan minoritar aksiyadorlar qo'mitasining a'zolari tomonidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

196. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining raisi minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolat doirasiga kiritilgan barcha masalalar bo'yicha Bank hujjatlaridan foydalanish huquqiga ega.

197. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi Bank xo'jalik faoliyatiga aralashishga haqli emas.

198. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining faoliyatiga Kuzatuv kengashi yoki ijroiya organining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

14- bob. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish

199. Bank va quyidagi shaxslar o'ttasida o'zaro munosabatlar va aloqalar natijasida manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelishi mumkin:

bank mijozlari;

bank aksiyadorlari;

kengash yoki boshqaruv a'zolari;

bank xodimlari;

bankka aloqador shaxslar;

boshqa manfaatdor tomonlar (omonatchilar, kreditorlar va bankdan manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslar), shu jumladan, oxirgi benefitsiar mulkdorlar.

200. Bank tomonidan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish siyosati ishlab chiqiladi, uni amalga oshirish tartibini o'rnatiladi hamda uning amalga oshirilishini nazorat qilinadi.

201. Kuzatuv kengashi va boshqaruv a'zoligiga hamda muhim ahamiyatga ega xodim lavozimiga tayinlangan (saylangan) xodimning yaqin qarindoshlarining ro'yxati bankning elektron bazasida shakllantiriladi va elektron baza muntazam yangilanib boriladi.

202. Bankda yuzaga kelgan va ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlari hamda yuzaga kelgan salbiy holatlari haqida ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi.

15- bob. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoboti, bankning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish

203. Qonunchilikda va Markaziy bank me'yoriy huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda hamda xalqaro standartlarga, shuningdek Markaziy bank tomonidan belgilangan qoidalar asosida ishlab chiqilgan ichki hisob-kitob siyosatiga muvofiq buxgalteriya hisobining yuritilishi, moliyaviy hisobot taqdim etilishi, hujjatlar aylanishi va saqlanishi tashkil etiladi. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar quyidagilarni ta'minlaydi:

boshqaruvga, moliyaviy hisobotga, soliq solishga va nazoratga oid hisobotning hamda boshqa hisobotlarning ishonchlilagini, ularda bankning haqiqiy moliyaviy holati va faoliyati natijalari aks ettirilishini;

bank aktivlari va yuzaga keluvchi tavakkalchiliklarni boshqarish xavfsizligini;

Bank aksiyadorlari va Kuzatuv kengashi tomonidan Bank moliyaviy ahvolini va uning mansabдор shaxslarning ishini nazorat qilish tiziminii ta'minlaydi.

204. Bank moliyaviy va nazoratga oid hisobotlarini Markaziy bank tomonidan

belgilangan shakllarda, tartibda va muddatlarda tuzadi hamda Markaziy bankka taqdim etadi.

205.Tashqi auditning Molivayi hisobotlarning xalqaro standartlariga muvofiq tuzilgan yillik molivayi hisoboti Aksiyadorlarning yillik umumi yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin belgilangan tartibda e'lon qilinadi.

206.Bankda ichki nazorat holatini, jumladan moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligi, hisobning ishonchliligi va aniqligi, hisobotlarning to'liqligi va ob'ektivligi, amaldagi qonunchilikka, Bank Ustavi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlarga, bank operatsiyalarini amalgalashirish qoidalari va tartiblariga rioya qilinishini tekshirish (audit) va monitoringini amalgalashiruvchi, bevosita Kuzatuv kengashiga bo'ysunuvchi Ichki audit xizmati (departamenti) faoliyat ko'rsatadi. Ichki audit xizmati o'z faoliyatini, Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan "Ichki audit xizmati to'g'risidagi nizom", hamda Bankning boshqa ichki me'yoriy hujjatlariaga asosan amalgalashiradi.

207.Bank ichki nazoratga hamda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir Markaziy bank tomonidan belgilangan quyidagi talablarga rioya etishi shart:

ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun molivayi, nazoratga oid hamda boshqa hisobotlarning to'liqligini, ishonchliligini va o'z vaqtidaligini, shuningdek axborot xavfsizligini ta'minlash;

bank tomonidan prudensial talablar bajarilishini ta'minlash;

bankda bank uchun ahamiyatli bo'lgan tavakkalchiliklarni aniqlash va boshqarish, stress-testdan o'tkazish bo'yicha tasdiqlangan siyosatining, shuningdek bank uchun ahamiyatli tavakkalchiliklar va kapital bo'yicha hisobot tizimining mavjudligi;

bank uchun ahamiyatli tavakkalchiliklarni boshqarishga va ularning samaradorligini baholashga doir siyosatlarning bank tomonidan izchil amalgalashirishi hamda ularga rioya etishi;

bankning ichki hujjatlarida belgilangan tavakkalchiliklarning eng yuqori miqdorlariga va kapitalning monandligiga, tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha bankda qo'llanilayotgan tartib-taomillarning samaradorligiga hamda ularni qo'llash izchilligiga bankning rioya etishi ustidan kuzatuv kengashi tomonidan nazoratni amalgalashirish.

208.Bankning faoliyati har yili tegishli litsenziyaga va Markaziy bankning tijorat banklarida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikatiga ega bo'lgan tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan tekshirilishi shart.

209.Auditorlik tashkiloti tomonidan tekshirish Bank bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, molivayi hisobotlarning xalqaro standartlarida belgilangan tartibda o'tkaziladi.

210.Bankning moliya-xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni amalgalashirish uchun bankda taftish komissiyasini tuziladi.

211.Taftish komissiyasi aksiyadorlarning umumi yig'ilishi tomonidan saylanadi.

212.Bank taftish komissiyasi a'zolariga doir malaka talablari aksiyadorlarning umumi yig'ilishi tomonidan belgilanadi. Ayni bir shaxs ayni bir jamiyatning taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

213.Bank taftish komissiyasining faoliyat ko'rsatish tartibi aksiyadorlarning umumi yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan nizomda belgilanadi.

214.Bank taftish komissiyasining yozma talabiga ko'ra bank Boshqaruvi moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni taqdim etishi shart.

215.Bank taftish komissiyasining a'zolari bir vaqtning o'zida Kuzatuv kengashining a'zosi bo'lishi, shuningdek ayni shu jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlashi mumkin emas.

216.Bankning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra jamiyatning taftish komissiyasi xulosa tuzadi, bu xulosada:

hisobotlarda va boshqa molivayi hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning

ishonchiligiga doir baho;

buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilayotganda qonunchilik buzilganligi faktlari to'g'risidagi axborot ko'rsatilishi shart.

16- bob. Bank filiallari va vakolatxonalar, ularni tashkil etish tartibi

217.Bank o'rmatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida filiallar, bank xizmatlari markazlari va ofislari, vakolatxonalar va boshqa alohida bo'linmalar tashkil etishi hamda ularga qonunchilikda va Bank Ustavida belgilangan doirada va tartibda vakolatlar berishi mumkin.

218.Bank filiallari, Markaziy bankni yozma xabardor qilgan holda Kuzatuv Kengashiv qaroriga binoan belgilangan tartibda ochiladi va tugatiladi.

219.Filiallar mustaqil yuridik shaxs bo'lib hisoblanmaydi, ular o'z faoliyatini belgilangan tartibda tasdiqlagan filial to'g'risidagi nizom asosida yuritadi va Bank nomidan bank operatsiyalarining hammasini yoki bir qismini belgilangan iqtisodiy me'yorlar va vakolatlari doirasida Markaziy bank tomonidan Bankka berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi. Filiallar o'z faoliyatini xo'jalik hisobi tamoyillari asosida tashkil etadilar.

220.Filial rahbarlari va bosh buxgalterlari Boshqaruv raisi tomonidan tayinlanadi. Filial rahbarlari Boshqaruv raisi bergen ishonchnoma asosida ish yuritadi. Boshqaruv raisi Bank nomidan filiallar rahbarlari va bosh buxgalterlari bilan mehnat shartnomasini imzolaydi. Bank filiallari bankning nomi va timsoli hamda o'zining nomi yozilgan yumaloq muhri, shtamp va blankalariga, balansiga ega bo'ladi.

221.Mijozlarga tezkor xizmat ko'rsatish maqsadida, bank O'zbekiston Respublikasi hududida bank xizmatlari markazlari va ofislari ochishi mumkin. Bank xizmatlari ofislari Markaziy bankni yozma xabardor qilgan holda Boshqaruvning qaroriga asosan belgilangan tartibda ochiladi va ularning faoliyati tugatiladi. Bank xizmatlari ofisi bank yoki bank filiali binosidan tashqarisida joylashgan bankning tarkibiy bo'linmasi hisoblanib, bank yoki uning filali bilan yagona bo'lgan balans va kodga ega bo'ladi.

222.Bank o'z manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi, o'zi turgan yerdan tashqarida bank faoliyatini amalga oshirmaydigan Bankning alohida bo'linmasi bo'lgan o'z vakolatxonalar ochishi mumkin. Vakolatxona Kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq tashkil etiladi va tugatiladi.

223.Filiallar va vakolatxonalar Bank tomonidan mulk bilan ta'minlanadi va Bank o'zining filiallari va vakolatxonalarining faoliyati uchun javobgar bo'ladi.

17-bob. Bankni qayta tashkil etish va tugatish

224.Bankni qayta tashkil etish raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablari hisobga olingan holda, aksiyadorlar umumiylig'i ilishining qaroriga muvofiq qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida Markaziy bankning ruxsati bilan amalga oshiriladi.

225.Bankning faoliyatini tugatish va bankni tugatish ixtiyoriy yoki majburiy (Markaziy bank tomonidan litsenziya chaqirib olinganda) shaklida amalga oshirilishi mumkin.

226.Bankning faoliyatini tugatish va bankni tugatish uchun:

bank aksiyadorlari umumiylig'i ilishining bankni ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qarori; Markaziy bank boshqaruvining bankni majburiy tugatish haqidagi qarori asos bo'ladi.

227.Bankni tugatish Bankning davlat reyestriga tegishli yozuv kiritilgan kundan e'tiboran tamomlangan deb va bank tugatilgan deb hisoblanadi. Bankni tugatish qonunchilik hujjatlariga

muvofiq amalga oshiriladi. Bankni tugatish va tugatish komissiyasini tayinlash haqidagi qaror Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi. Tugatish komissiyasi tayinlangan vaqtadan e'tiboran Bankni boshqarish bo'yicha barcha vakolatlar Tugatish komissiyasiga o'tadi.

228. Bankning qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi haqidagi xabar belgilangan tartibda matbuotda e'lon qilinadi.

18-bob.Bank ustavi, unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish

229. Bank Ustaviga Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va/yoki o'z vakolatlari doirasida Kuzatuv kengashi tomonidan kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

230. Bank Ustaviga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar yoki Bankning yangi tahrirdagi Ustavi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran uchinchi shaxslar uchun kuchga kiradi.

231. Agar mazkur Ustavning ma'lum bir qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiliga zid kelib qolsa, ushbu qoidalalar o'z kuchini yo'qotadi va bunday qoidalalar bilan tartibga solinadigan masalalar bo'yicha Ustavga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga amal qilinadi.

232. Ushbu Ustav Markaziy bankda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi munosabati bilan Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining 2023 yil 23-martdagи 12-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va Markaziy bank tomonidan 2023 yil 18-aprelda 82-raqam bilan ro'yxatga olingan Bank Ustavi, Markaziy bank tomonidan 2023 yil 11-avgustda 82/1-raqam, 2023 yil 6-oktabrda 82/2-raqam, 2023 yil 26-dekabrda 82/3-raqam, 2024 yil 23-fevralda 82/4-raqam bilan ro'yxatga olingan Bank Ustaviga qo'shimcha va o'zgartirishlar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

TIKLIGAN VA RAOQAMLANGAN

29 (yigirma tögg'iz)

varaqdan iborat 2024 yil 15.04.

imzo

